

Jismoniy tarbiya va sport statistikasi bo'yicha uslubiy nizom

Jismoniy tarbiya va sport statistikasi bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – uslubiy nizom) jismoniy tarbiya va sport rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, jumladan, sport inshootlari soni va ularning quvvati, jismoniy tarbiya jamoalari, sport klublari, sport turlari bo'yicha muntazam ravishda shug'ullanayotganlar soni to'g'risidagi rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish tartibini belgilab beradi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiy nizom Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model – GSBPM) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, quyidagi asosiy ta'rif va tushunchalar keltirilgan:

jismoniy tarbiya va sport statistikasi — mamlakatda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishning shart-sharoitlari, resurslari va natijalarini miqdoriy jihatdan tavsiflaydigan rasmiy statistikaning bir bo'limidir;

jismoniy tarbiya — madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, me'yorlar va bilimlar yig'indisidan iborat bo'lgan qismi;

sport — odamlarning muayyan qoidalar bo'yicha tashkil etilgan, ularning jismoniy va intellektual qobiliyatini taqqoslashdan iborat bo'lgan havaskorlik asosidagi va professional asosdagi faoliyati, shuningdek, ushbu faoliyatga tayyorgarlik ko'rish hamda bu faoliyat jarayonida odamlar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar;

sportchi — tanlagan sport turi yoki sport turlari bilan muntazam shug'ullanadigan, doimo o'zining sport mahoratini oshirib boradigan va sport tadbirlarida qatnashadigan jismoniy shaxs;

sport inshooti — sport tadbirlari va ommaviy sport tadbirlarini, sport turlari bo'yicha o'quv-mashq mashg'ulotlari va o'quv-mashq yig'inlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan, o'ziga qo'yiladigan norma va talablarga javob beradigan yopiq yoki ochiq tipdagi ixtisoslashtirilgan inshoot.

2-bob. Jismoniy tarbiya va sport statistikasini shakllantirish manbalari

2. Jismoniy tarbiya va sport sohasida statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi (keyingi o'rinlarda – Sport vazirligi) tomonidan yilda bir marta taqdim etiladigan 1-jismoniy tarbiya shakli “Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha idoraviy hisobot”, 1-sport “Sport ta'limi muassasalari bo'yicha idoraviy hisobot” va boshqa ma'muriy ma'lumotlardan foydalaniladi.

3-bob. Jismoniy tarbiya va sport statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish

3. Sport vazirligi tomonidan taqdim etiladigan ma'muriy ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- jismoniy tarbiya va sport inshootlarining turlari bo'yicha soni;
- jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi shaxslar soni;
- ixtisoslashtirilgan sport maktablari, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari soni;
- ixtisoslashtirilgan sport maktablarida o'quvchilar soni.

Sport vazirligi tomonidan taqdim etiladigan ma'muriy ma'lumotlar asosida jismoniy tarbiya va sport statistikasiga oid nisbiy statistik ko'rsatkichlar quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

Qoida: barcha ulush, foizlar verguldan keyin bir xonali raqamlarda ifodalanadi, nafar yoki kishini ifoda etuvchi raqamlar butun songacha yaxlitlanadi.

O'rtacha 10 000 aholiga nisbatan jismoniy tarbiya va sport seksiyalari hamda bo'limlarida sport bilan shug'ullanuvchilar soni

$$I_t = \frac{Z_t}{P_t} \times 10\,000$$

bu yerda: I_t — 10 000 aholiga nisbatan jismoniy tarbiya va sport seksiyalari hamda bo'limlarida sport bilan shug'ullanuvchilar soni;

Z_t — jismoniy tarbiya va sport seksiyasi hamda bo'limlarida sport bilan shug'ullanuvchilarning umumiy soni;

P_t — umumiy o'rtacha yillik aholi soni.

Masalan, 2024-yilda sport seksiyasi va bo'limlarida shug'ullanuvchilarning umumiy soni 2 502 351 kishini tashkil etgan. 2024-yilda umumiy o'rtacha yillik aholi soni 37 171 469 nafarni tashkil etgan. O'rtacha 10 000 aholiga nisbatan jismoniy tarbiya va sport seksiyasi hamda bo'limlarida sport bilan shug'ullanuvchilar soni quyidagicha hisoblanadi:

$$I_t = \frac{2\,502\,351}{37\,171\,469} \times 10\,000 = 673$$

Shahar joylarida sport bilan shug'ullanish darajasi (%)

$$PR_{urban} = \frac{N_{urban}}{P_{urban}} \times 100\%$$

bu yerda: PR_{urban} — shahar joylarida sport bilan shug'ullanish darajasi;

N_{urban} — sport bilan shug'ullanuvchi shahar aholisi soni;

P_{urban} — shahar joylarda istiqomat qiluvchi umumiy o'rtacha aholi soni. Masalan, 2024-yilda shahar joylarida joylashgan sport seksiyasi va bo'limlarida sport bilan shug'ullanuvchilarning umumiy soni 1 231 743 nafarni tashkil etdi. 2024-yilda shahar joylarda yashovchi umumiy o'rtacha aholi soni 18 956 954 kishini tashkil etdi. Shahar joylarida sport bilan shug'ullanish darajasi quyidagicha hisoblanadi:

$$PR_{urban} = \frac{1\,231\,743}{18\,956\,954} \times 100\% = 6,5\%$$

Sport inshootlaridan foydalanish koeffitsiyenti

$$U_{day} = \frac{V_{day}}{C_{day}} \times 100\%$$

bu yerda: U_{day} — sport inshootlaridan foydalanish koeffitsiyenti, %;

V_{day} — sport inshootlariga bir kunlik tashriflar soni, kishi;

C_{day} — sport inshootlarining bir kunlik qabul qilish quvvati, kishi.

Masalan, barcha sport inshootlariga o'rtacha bir kunda jami 1 927 628 nafar sport bilan shug'ullanuvchilar qayd etilgan. Barcha sport inshootlarining bir kunlik qabul qilish quvvati 2 200 845 nafarni tashkil etadi. Sport inshootlaridan bir kunda foydalanish koeffitsiyenti quyidagicha hisoblanadi:

$$U_{day} = \frac{1\,927\,628}{2\,200\,845} \times 100\% = 87,6\%$$

Olimpiya sport turlari bilan shug'ullanuvchi ayollar ulushi

$$Share_{OL}^f = \frac{\sum_i OL_i^f}{\sum_i OL_i} \times 100\%$$

bu yerda: OL_i — Olimpiya sport turlari bilan shug'ullanuvchilarning umumiy soni;

f — Olimpiya sport turlari bilan shug'ullanuvchilar ayollar soni.

Masalan, 2024- yilda olimpiya sport turlari bilan shug'ullanuvchilarning umumiy soni 9 000 nafarni tashkil etgan. Shundan 3 800 nafarini ayollar tashkil qiladi. Olimpiya sport turlari bilan shug'ullanuvchi ayollar ulushi quyidagicha hisoblanadi.

$$Share_{OL}^f = \frac{3\,800}{9\,000} \times 100\% = 42,2\%$$

4-bob. Jismoniy tarbiya va sport statistikasi ma'lumotlarini tarqatish

4. Har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturiga muvofiq, jismoniy tarbiya va sport statistikasiga oid ma'lumotlar shakllantirilib, quyidagi ko'rinishda e'lon qilinadi:

Yillik statistika byulleteni: "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari";

yillik statistika to'plamlari;

O'zbekiston raqamlarda;

O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi;

O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami;

Ayollar va erkaklar;

Yillik press-relizlar va rasmiy veb-saytdagi tahliliy materiallar.

Rasmiy statistika ma'lumotlaridan foydalanuvchilarga statistika organlari tomonidan shakllantiriladigan rasmiy statistika ma'lumotlarini taqdim etish va tarqatish tartibiga muvofiq, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarning yozma so'rovlari asosida ham taqdim etiladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

5. Uslubiy nizom statistika kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazishning asosiy bosqichlariga mos keluvchi ketma-ketlikda bayon etiladi va soha bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon beruvchi ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

6. Mazkur uslubiy nizomni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq bayon etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2015- yil 4- sentabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'RQ-394-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi "Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'RQ-707-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 24- fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 24- yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 24- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-75-son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Sport vazirining 2025- yil 11- apreldagi "Sport turlari bo'yicha 2025—2028- yillar uchun Yagona sport tasnifini tasdiqlash haqida"gi buyrug'i. (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025- yil 5- mayda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3623).

